

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O'SMA KASALLIKLARI STATISTIKASI ORTIB BORISHINING ASOSIY SABABLARI

Muxtorova Shahribonu Ravshanbek qizi
CAMU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya:

O'sma kasalliklari nafaqat respublikamizda, balki butun dunyo miqyosida murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida onkologik kasalliklarga chalinish ko'rsatkichlari oshib borayotir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2030 yilda butun dunyoda o'sma xastaliklari bilan 15 million kishi kasallanishi mumkin. Yurtimizda yiliga 22 mingdan ortiq bemorlarda onkologik xastalik aniqlanayotgani, o'z navbatida, mazkur kasallikka qarshi kurashish tizimining takomillashtirilishi, yangi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, uni moliyalashtirish manbalarining aniq belgilanishini taqozo etmoqda.

Kalit so'zlar: rak hujayrasi, ko'krak bezi saratoni, kimyoviyterapiya

Butun dunyoda bo'lgani kabi, yurtimizda ham, yil sayin onkologik kasalliklar ko'payib bormoqda. Jahon bo'yicha har yili 16 million nafar onkologik bemorlar aniqlanadi. Yurtimizda esa yiliga 22 mingdan ortiq bemorlarda onkologik xastaliklar qayd etilmoqda.

Bemorlar sonining oshib borayotganligiga bir necha omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Albatta, ushbu omillar sirasiga atrof-muhitning ifloslanishi, iqlimning global o'zgarishi, iste'mol qilayotgan oziq-ovqat va ichayotgan suvimiz tarkibida turli sun'iy qo'shimchalarning ko'payib borayotgani, zararli odatlar hamda jismoniy faollikning pasayib borayotganligi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Chekish ham saratonni chaqiruvchi kanserogen omillardan biri sanalib. O'pka raki bilan bog'liq holatlarning 80 % aynan chekish sababli vujudga kelishi aniqlangan. Bu haqida Toshkentda o'tkazilgan «Tamakisiz kelajak sari» mavzusidagi trening davomida ommaviy axborot vositalariga ma'lum qilindi.

Toshkentda 100 ming aholiga nisbatan onkologik kasalliklarga chalinish ko'rsatkichi 190 dan ortiq kishini tashkil qiladi. Bu respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichdir. O'zbekistonning chekka hududlarida ko'rsatkich odatda 35-40 kishidan 50 kishigacha to'g'ri keladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ammo bu Toshkentda boshqa viloyatlarga nisbatan onkologik kasalliklarga chalinish ko'p degani emas.

Shunchaki, Toshkent shahrida diagnostika yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakat qancha rivojlangan bo'lsa, ularda saraton kasalligi ko'p uchraydi. Chunki ularda diagnostika yaxshi rivojlangan bo'ladi. Mana masalan, Afrika davlatlarida saraton diagnostikasi sust, albatta, shuning uchun saraton kasalligi ham kam aniqlanadi.

- O'zbekistonda Rossiya va Qozog'iston kabi qo'shni mamlakatlarga nisbatan saraton kasalligi aniqlanish ko'rsatkichi pastroq. Bu mamlakatimizda diagnostikaning Rossiya va Qozog'istonga nisbatan sust rivojlanganini anglatadimi?

-Bizda saraton kasalligining qo'shni mamlakatlarga nisbatan kamligiga sabab bu O'zbekiston aholisining ko'pchiligini yoshlar tashkil qilishidir. Bizda tug'ilish ko'rsatkichi yuqori, aholining 30 foizi mehnatga layoqatlilik yoshidan, ya'ni 18 yoshdan past bolalar, 30 foizdan ortiq, 40 foizga yaqin kishi mehnatga layoqatli yoshda. Atigi 10 foizdan oshiqroq qismigina qariyalardir. Davlatda qanchalik yoshlar ko'p bo'lsa, saraton kasalligi kam bo'ladi. Chunki, bu kasallik qariyalarga nisbatan yoshlarda kamroq uchraydi. Evropa davlatlarida, Rossiyada qariyalar ko'proq, yoshlar esa kam bo'lgani uchun ularda saratonga chalinish ko'rsatkichi ham balanddir.

Shuningdek, O'zbekistonda tabiiy o'lim sabablarining har doim ham o'rganilmasligi, ayrim chekka hududlarda aholining o'z salomatligiga befarqligi, ba'zi shifokorlarning onkologik ehtiyotkorligining pastligi hamda aholining ba'zi qatlami zamonaviy tibbiyotga emas, tabiblarga ishonishi kabi muammolar borligi uchun ham onkologik kasalliklarning aniqlanishi ko'rsatkichi kamroq, deyish mumkin. 20 yildan ko'proq vaqt davomida kuniga bitta quti tamaki chekadigan insonlarda chekmaydiganlarga qaraganda o'pka saratoniga chalinish xavfi 8-10 baravar yuqori.

Barchamizga ma'lumki onkologik kasalliklar hech qanday simptomlarsiz, birorta belgilersiz vujudga keladi. Oqibatda ularni aniqlash imkoni judayam qiyinlashadi. Kasallik qancha kech aniqlansa, kasallik darajalariga qarab ularni davolash imkoniyati ham ancha pasayadi. Onkologik kasalliklar qancha tez tashxis qo'yilib, erta aniqlansa ularga qarshi kurashish shuncha osonlashadi.

Bugungi kunda dunyoda ko'krak bezi saratonidan keyingi o'rinda bachadon bo'yni va bachadon tanasi raki judayam ko'p uchraydi. Ko'p hollarda ayollar kechikib murojaat qilishadi. Buning sababi ham bor. Kasallik belgilersiz rivojlanadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Kasalliklarning kelib chiqish sabablari bo'yicha nazariyalar judayam keng qamrovli bo'lib, aniq bir sababni keltirish qiyin. Gormonal statusning o'zgarishi, stress holati, ortiqcha vazn va moddalar almashinuvi buzilishlari onkologik kasalliklarning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari nasliy omillar, tashqi muhitning o'zgarishi, ekologik holat hamda ko'pgina yuqumli kasalliklar ham kasallik rivojlanishiga ta'siri bor degan nazariyalar mavjud.

Bugungi kunda O'zbekistonda onkologik kasalliklarni oldini olish bo'yicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Kasallikni erta aniqlash uchun ayollardan bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tib, o'zlarining sog'liqlariga befarq bo'lmasliklarini iltimos qilardik. Chunki onkologik kasalliklarni davolash judayam qiyin hamda katta mablag' talab qilinadi. Shuningdek, samara olish uzoqqa cho'zilib, oqibatda ayanchli holatlarga olib kelishi mumkin.

Asosiysi onkologik kasalliklarni oldini olishda birinchi qilinadigan ish bu profilaktik ko'riklarni amalga oshirishdir. Sababi onkologik kasalliklar bugungi kunda yosharib bormoqda. Shu sababli ayollarimizga sog'liqlariga bee'tibor bo'lmasliklarini so'rab qolardik

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://addon.life/uz>
2. <https://cancerfax.com/uz>
3. <https://www.vaidam.com/uz>

